

Сопоставительный анализ русского и узбекского языков выявляет значительное количество структурных различий, которые вызывают трудности у учащихся-носителей узбекского языка. Эти различия касаются всех уровней языка: от фонетики до синтаксиса. Преподавателям необходимо учитывать влияние родного языка учащихся и разрабатывать методику, направленную на преодоление интерференции.

Адаптированные учебные пособия, билингвальные объяснения, а также активное использование сравнительного подхода могут существенно повысить эффективность обучения русскому языку в национальной аудитории.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. И.А. Киссен. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. – Ташкент: Учитель, 1966. стр. 33-35
2. В.Г. Костомаров . Русский язык для национальных школ. – М.: Русский язык, 2019. стр. 79-82
3. Ш. Ергашев. Сопоставительная типология русского и узбекского языков. – Ташкент: Турон, 2005. стр.56

MIRZO ULUG‘BEK - O‘RTA OSIYO ILM-FANINING BUYUK YULDUZI

*Ahatova Dilshoda Bahodir qizi.
Denov tadbirkorlik va pedagogika
Institutining filologiya fakulteti
Ingliz tili yo‘nalishi talabasi*

Annotation: This article examines the incomparable contribution of Mirzo Ulugbek, and Uzbek scientist and astronomer who lived in the XVI century to science and his role in society.

Keywords: Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, astronomy, Ziji jadidi Kuragoniy, stars, Movorounnahr, Samarqand, observatory, Zafarnoma, History of Arba Ulus.

Mirzo Ulug‘bek Temuriylar sulolasining Zohirshohi va buyuk olimi astranomatematik va arxitektor edi. Uning iste‘dodi va kashfiyotlari uni jahon tarixida o‘z o‘rniga ega qildi. Mirzo Ulug‘bek 1394-yil Samarqandda tavallud topgan va o‘sha davrning eng buyuk olimlaridan biri edi.

O‘sha davr tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha, Amir Temurga nabirasi tug‘ilganligi haqida xabar keltiradi va munajjimlar uning olim bo‘lishini bashorat qiladi. Temur ushbu xushxabar haqida eshitgandan so‘ng, Mordin qal‘asi qamalini to‘xtatdi va uning xalqiga yuklangan tovonnni bekor qiladi. Yangi tug‘ilgan nabirasiga Muhammad Tarag‘ay ismi berildi. Darhaqiqat, Mirzo Ulug‘bek bobosi qo‘ygan ismiga mos edi.

Mirzo Ulug‘bek uzoq yillar o‘z saltanatini adolat va insonparvarlik g‘oyalari asosida boshqaradi va keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga harakat qiladi, bundan tashqari u ilm -fan madaniyat, san‘at sohalarini ham yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratadi. Uning tashabbusi va homiyligi ostida ko‘plab maktablar, kutubxonalar, madrasa va masjidlar, karvonsaroylar, ko‘priklar hamda so‘lim bog‘lar barpo ettiradi. Natijada o‘lkamiz har tomonlama taraqqiy etib Sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan diyoriga aylanadi. Hozirgi kunda ham Mirzo Ulug‘bekning ilmiy ma‘rifiy merosining jahon sivilizatsiyasi rivojida o‘rniga bag‘ishlangan ilmiy adabiy tadbirlar o‘tkazish uning hayoti va faoliyatiga oid spektakllarni sahnalashtirish va u haqida kitoblar yozish muhim ahamiyatga egadir.

Mirzo Ulug‘bek o‘zbek xalqining tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shaxs iste‘dodli hukmdor. U Amir Temurning nevarasi va Shohrux Mirzoning o‘g‘li. Mirzo Ulug‘bek 1409-yili otasi vafot

etgandan so'ng Samarqand taxtining vorisi bo'lgan, ammo uning hukmronligi 1411-yilda boshlangan U o'zining bobosi Amir Temurdan keyin Temuriylar imperiyasining hukmdori bo'ldi.

Ulug'bek taxtga o'tirishdan oldin o'zining otasi Shohrux Mirzo bilan birgalikda hukmdorlik qilgan va davlat ishlarini boshqargan.

Mirzo Ulug'bek davlatni boshqarish jarayonida xolis va adolatli boshqargan fuqarolarning talablarini hisobga olgan holda ish Mirzo Ulug'bek asosan olim va hukmdor sifatida tanilgan bundan tashqari u ko'plab harbiy yurishlarda qatnashgan. Uning hukmdorligi davrida Temuriylar sulolasi nisbatan tinchlik davrida edi. Otasi Shohrux Mirzo tomonidan yaratilgan ilmiy va madaniy muhitni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi

Mirzo Ulug'bek 1411-yili Xorazmni bosib olish uchun harbiy yurish qilgan va Xorazmshohlari bilan to'qnashgan. Ulug'bek bu jangda g'olib chiqqan va Xorazmni Temuriylar imperiyasining bir qismiga aylantirgan.

Ulug'bekning yana ikki yirik yurishi haqida aytadigan bo'lsak, birinchisida, 1425-yili Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'lon (1421-1425) o'zini mustaqil xon deb ataydi va Ulug'bekka qarshi chiqadi Ulug'bek bu yurishda g'alaba qozondi. 1430-yilda o'zining ukasi va dushmani Abulxayr bilan keng miqyosli jangga kirishgan. Ushbu urush

Ulug'bekning mag'lubiyati bilan yakunlangan va bu holat uning hukmronligining zaiflashuviga olib kelgan.

Ulug'bekning yana bir yurishi mag'lubiyat bilan tugagan, bu urush Sig'noq tomon yani Sirdaryoning quyi havzasida unga tahdid qilgan Barmoq o'g'lon bilan sodir bo'lgan va dushman qo'shinlari Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan.

Ulug'bekning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" yoki "Ziji Sultoni Mirzo". Bu asar Ulug'bek tomonidan 1437- yilda nashr etilgan. Bu asarda astranomiya jadvallari to'plami mavjud. Bu asar astranomiya va hisoblash ishlaridagi yangiliklarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu sohada ko'plab yangiliklar va bilimlarni bera oladi, asarda astronomiyaga oid nazariyalarni, koinotning tuzilishini va osmondagi jismlarning harakatini o'rganish uchun kerakli asboblari va metodlarni tasvirlaydi.

Ulug'bek yulduzlar harakati va ularning kardinatalari joylashuvi haqida aniq ma'lumotlar keltiradi. Asar o'sha davrdagi kuzatuvlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib keyingi avlod astronomlari uchun muhim manba bo'lib qoldi. Ziji Jadidi Ko'ragoniy asarining ilmiy ahamiyati O'rta Osiyo ilmiy an'analari va dunyo astranomiya sizda muhim o'rin tutadi. Ulug'bekning ilm -fan sohasidagi xizmatlari hozirgi kunda ham qadrlanadi va o'rganiladi. Bu asarda astronomik hodisalarni bashorat qilish uchun ishlatilgan turli hisob kitoblari ham keltirilgan.

Dunyo ilm faniga Sharqning 2-renaissansi deya ta'rif bilan kirgan XIX XV asrlarda ijod etgan mutafakkir-u allomalar orasida Temuriy hukmdori Mirzo Ulug'bek ham bor edi. Amir Temurdan bo'lgan san'at va adabiyotga bo'lgan qiziqish uning farzandlari va nabiralaridan ham bor Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand yirik, siyosiy, ilm -fanining madaniy markaziga aylandi. Ulug'bek olim va ma'rifatparvar sifatida ilm fanga katta e'tibor berib, Samarqandda yirik olimlarni jamlashga urindi. Samarqand, G'ijduvon, Buxoroda ko'plab madrasa va maktablar qurdi Mirzo Ulug'bek davlat ishlari bilan birgalikda ilm fan homiysiga aylandi. U "Tarixi Arba Ulus" va "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" kabi asarlarini yozib qoldirdi. Ulug'bekni o'z navbatida shaharlarda ilm an ahliga bag'rini ochgan "Madrasalar bunyodkori" deyish mumkin.

Mirzo Ulug'bek rasadxonasi 1420-yillarda Samarqandda, Amir Temur davrida Mirzo Ulug'bek tomonidan badiiy va ilmiy maqsadlarda tashkil etilgan, bu rasadxona o'z zamonasidagi eng rivojlangan astronomik observatoriya hisoblanadi.

Ulug'bek rasadxonasi astronomik o'lchovlar, yulduzlarning pozitsiyasi va vaqtini hisoblash uchun mo'ljallangan.

Rasadxonada yirik asboblari masalan katta sextant va astralobolalar bilan bir qatorda, yulduzlarning 1018 ta koordinatalarini aniqlash uchun kuzatishlar olib Mirzo Ulug'bek ishlagan astronomik

jadvallar Ziji Jadidi Ulug Begi nomi bilan tanilgan bo'lib, ular keyinchalik asrlar davomida astronomiya rivojida katta ta'sir ko'rsatgan. Rasadxona ilm-fan, aniq hisoblash, va bilim olish markazi sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda ham Ulug'bek rasadxonasi ilmiy va madaniy meros sifatida qadrlanadi.

O'zbekiston va xalqaro miqyosida uning nomi olimlar tomonidan e'tirof Samarqandda uning nomi bilan bog'liq ko'plab rasadxonalar, muassasalar, va madaniyat markazlari mavjud.

2020-yili UNESCO tomonidan Ulug'bekning 625-yilligi nishonlanadi. Bu esa uning ilmiy merosini yanada tanitishga yordam berdi. Bundan tashqari Ulug'bekka bag'ishlangan ilmiy adabiy tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar, tashkil etilib kelinmoqda. Bu orqali uning ijodiy merosi yosh avlodga yetkazib berish ishlari amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bartold, V. V. (1963). Istoriya kul'turnoy zhizni Turkestana (Turkiston madaniy hayoti tarixi). Moskva: Nauka.
2. Kadirov, B. (2008). Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy merosi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Qosimov, O. A. (2014). Mirzo Ulug'bek: Ilmiy meros va uni o'rganish masalalari. Toshkent: Fan.
4. Niyozov, H. (2001). O'rta Osiyo astronomiyasi tarixi va Ulug'bekning roli. Samarqand: Sharq Nashriyoti.
5. Semenov, S. M. (1997). Zvezda Vostoka: Ulugbek i ego vremya (Sharq yulduzi: Ulug'bek va uning davri). Moskva: Nauka.
6. Sultonov, K. A. (2005). Mirzo Ulug'bekning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
7. Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000). O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Mirzo Ulug'bek haqidagi maqola). Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti.
8. Xarrat, E. M. (1983). O'rta Osiyoda ilm va madaniyat rivojlanishi. Toshkent: Fan.

XOTIRANI MUNTAZAM RAVISHDA YAXSHILASH VA XOTIRANI QAYTA TIKLASH USULLARI

*Ahatova Dilshoda Bahodir qizi.
Denov tadbirkorlik va pedagogika
Institutining filologiya fakulteti
Ingliz tili yo'nalishi talabasi*

Annotasiya: Men ushbu maqolada inson xotirasini muntazam ravishda yaxshilash va xotirani tiklash usullari haqida qisqacha ma'lumot berishga harakat qilaman Xotira inson ongining ajralmas va muhim qismlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Xotira, psixik jarayon, sezgi organlar, va neyrobika

Xotira atrof -muhitdagi voqelik (narsani) bevosita yoki bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda passiv va faol holda , reproduktiv va produktiv tarzda verbal va noverbal shaklda , mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon.(1). Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflari Aristotel va boshqalarda uchraydi. Xususan, bizning buyuk bobokalonimiz Abu nasr Al Farobiy Xotira haqida shunday deydi: Xotira bilishdagi jarayonning tarkibiy qismi ,xotira faqat insonlarga emas balkim hayvonga ham xos xususiyat ekanligini ta'kidlaydi